



18.10.2022 даги

Бухоро куприк тарнс сервис ХК ва Ободонлаштириш бошкармаси ўртасида 15000000,00 сўм умумий
суммага тузилган 127-2-31-ОВ2022 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 118
Шахсий газна ҳисобварақ 401722860062047045204118007

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4239000			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь	15 000 000,00			15 000 000,00
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	15 000 000,00			15 000 000,00

Жами 15000000,00 сўм

Ўн беш миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 4500000,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
_____ % ***20 22 октябрь ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____ % жорий ойнинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.Ў.

(имзо)

Куллиев Убайдулло Абдуллаевич

Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Явонов Рузикул Явонович

Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

« _____ » 20 _____ й.

« _____ » 20 _____ й.

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
БУХОРО ВИЛОЯТИ
ОЛОТ ТУМАН ҲОКИМЛИГИ
ОБОДОНЛАШТИРИШ
БОШҚАРМАСИ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BUXORO YILOYATI
OLOT TUMAN HOKIMLIGI
OBODONLASHTIRISH
BOSHQARMASI

Бухоро вилояти, Олот тумани, Ифтихор кўчаси Тел: (365) 34-21-080, 34-21-095 email: olotobodonlashtirish@umail.uz

18«10»2022 yil

127-2-31-OB/2022-son

**Loyiha-qidiruv ishlari uchun
PUDRAT SHARTNOMASI № 81-L**

1 Keyingi o`rinlarda "Buyurtmachi" Olot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan nizom asosida ish kuruvchi " direktori U. Qulliev (lavozimi va FISH) ikkinchi tomondan, va keyingi o`rinlarda xizmat kursatuvchi deb yuritiladigan "Buxoro kuprik trans servis " nomidan nizom asosida ish kuruvchi rahbar

N. Boltayev ikkinchi tomondan Dilkor MFY Mirobod qishlog`i ichki avtomobil yulini joriy ta`mirlash buyicha smeta loyixa xujjatlarini tayyorlash.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Pudratchi Buyurtmachining topshirig`iga binoan Olot tumani Dilkor MFY Mirobod qishlog`i ichki avtomobil yulini joriy ta`mirlash buyicha smeta loyixa xujjatlarini tayyorlash" Ob`ekti (Lot raqami 159785) bo`yicha loyixa-qidiruv ishlarini bajarish, yakunda tayyorlanadigan texnik/loyixa/smeta xujjatlarini o`rnatilgan tartibda tegishli vakolatli davlat organlari, tashkilotlari, mahalliy o`zini-o`zi boshqarish organlari, er uchastkalari boshqa mulk egalari, foydalanuvchilari bilan o`rnatilgan tartibda kelishilishini va boshqa ruxsat beruvchi harakatlarni bajarilishini (ekspertizadan o`tkazish, zarur kelishuvlar v.x.) ta`minlash va uning natijasini Buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish hamda ushbu Ob`ekt bo`yicha mualliflik nazoratini olib borish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ishni bajarish uchun zarur sharoit yaratib berish, ishni qabul qilish va shartnomaga muvofiq kelishilgan xaqni to`lash majburiyatini oladi.

2.2. Ishlarning mazmuni va xajmi, ularga va natijalariga qo`yilgan texnik-iqtisodiy va boshqa talablar Buyurtmasi tomonidan berilgan Texnik topshiriqda ko`rsatiladi.

2.3. Ishlarning natijasi amaldagi normativ-texnik va huquqiy xujjatlar, shu jumladan shaxarsozlik, qurilish, sanitariya, gigiena, yong`inni oldini olish soxasida qabul qilingan va loyiha-qidiruv, pudrat ishlarini ishtirokchilari tomonidan bajarilishi (rioya etilishi) lozim bo`lgan qoidalarni o`z ichiga olgan O`zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy xujjatlari, O`zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi normalar, qoidalar, standartlar, texnik shartlar, texnik reglamentlar, nizomlar, yo`riqnomalar, ko`rsatmalar (shu jumladan metodik va/yoki tavsiyaviy xarakterdagi), normativlar va boshqa nomlanishdagi xujjatlarning, Ishlar natijasini tekshirish, nazorat qilish, kelishish, ruxsat beruvchi taomillarni amalga oshirishga vakolatli bo`lgan davlat xokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilot va idoralarning, buyurtmachining talablariga hamda shartnomada ko`rsatilgan boshqa talablarga mos bo`lishi lozim.

1. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV QOIDALARI

- 2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imglar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda 15 000 000 (o'n besh millon so'm) so'mni tashkil etadi.
- 2.2. To'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi "So'm"da Pudratchining shartnomada to'lov rekvizitlariga naqdsiz shaklda, pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 2.3. Mazkur shartnomaning bahosi amaldagi qonunchilik bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan barcha soliqlar, yig'imglar va ajratmalarni o'z ichiga olgan hamda Pudratchining mazkur shartnomani bajarishi uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlari (shu jumladan shartnomaga muvofiq va uning amal qilishining butun davrida bajariladigan barcha ishlar qiymatini, tovar moddiy boyliklar (materiallar) qiymatini, ishchi kuchini jalb qilish va uning xaqqini to'lash xarajatlarini, transport (maxsus) xarajatlarini, kommunal, qo'riqlash, texnika xavfsizligi choralari ko'rish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish va boshqa har qanday xarajatlarini) qoplash uchun (Pudratchi tomonidan) etarli deb xisoblab, shartnoma imzolangan.
- 2.4. Pudratchi ishlarni bajarish muddatlari va qiymatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha xolatlar va shartlarni, jumladan, tegishli kelishuvlar, ruxsatnomalar olinishi, Davlat ekspertizadan o'tkazish, himoya qilish ishlar qiymati, ishlar yakuniy natijasini Buyurtmachiga taqdim qilishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa aspektlarni, o'zining xarajatlari va daromadlarini inobatga olgan holda ishlarni amalga oshirish xususiyatlari va mohiyatini to'liq o'rgangan va kelajakda mazkur holatlar bilan bog'liq texnik topshiriqva mazkur shartnomada nazarda tutilmagan (va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan) ishlar (xarajatlar) uchun to'lovlarni (shartnoma summasidan ortiqcha miqdorda) talab qilishga haqli emas.
- 2.5. SHu bilan birgalikda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKda Loyiha smeta hujjatlari (mantda keyinchalik LSH deb yuritiladi)ni tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini va ularning narx parametrlarini baholash qismi bo'yicha ekspertiza qilinganda, Pudratchi Buyurtmachi bilan birgalikda LSHni himoya qilish jarayonlarida qatnashadi. LSH bilan bog'liq e'tiroz va kamchiliklar bildirilgan taqdirda, ularni muzokaralar jarayonida joyida bartaraf qilish imkoni bo'lgan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida o'z hisobidan mazkur kamchilik va e'tirozlarni to'liq bartaraf qilish majburiyatini (shu jumladan qayta ekspertizadan o'tkazish) zimmasiga oladi. Bunday holatda "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK tomonidan LSQning tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini va ularning narx parametrlarini baholash qismi bo'yicha ijobiy huloa berilgan taqdiridagina Pudratchining shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlari/xizmatlari haqqi to'lab berilishi mumkin.
- 2.6. Pudratchining aybi bilan yoki u javobgar va/yoki mas'ul bo'lgan holat tufayli bajarilgan ishlar hajmi va qiymati oshib ketganda ularning qiymati Buyurtmachi tomonidan qoplanmaydi.
- 2.7. Buyurtmachi Pudratchining soliq va majburiy to'lovlarni noto'g'ri hisoblaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.
- 2.8. SHartnoma shartlari, texnik topshiriq, normativ-texnik va huquqiy hujjatlar talablaridan chetga chiqilgan holda bajarilgan ishlar Pudratchi va Buyurtmachi o'rtasida tuziladigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va aniqlangan kamchiliklar, defektlar bartaraf qilinmagunga qadar ishlar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.
- 2.9. SHartnoma bo'yicha bajarilgan ishlar uchun to'lovlar Ruspublika byudjeti(moliyalashtirish manbai) mablag'lari (matnda bundan keyin "Byudjet mablag'lari" deb yuritiladi) hisobidan amalga oshiriladi.
- Mazkur SHartnoma shartlariga muvofiq moliyalashtirish manbaidan Buyurtmachi tomonidan pul mablag'lari olinishi va to'lanishini ta'minlanishi, qat'iy ravishda tegishli moliya yilida "Ob'ekt" uchun, byudjet to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq, tasdiqlangan byudjet mablag'lari limitlari doirasida amalga oshiriladi.
- 2.10. To'lovlar amalga oshirilgan vaqt : Buyurtmachiga "Ob'ekt" uchun ochilgan maxsus g'azna hisob raqamidan pul mablag'lari o'chirilgan sana.

2.11. Pudratchi tegishli yil uchun avans(bo`nak) to`lovlari amalga oshirilmasdan oldin ishlarni boshlashga haqli emas. Avans to`lovlari amalga oshirilishini kutmasdan boshlangan va bajarilgan ishlarning to`lovga qabul qilinishi va to`lovlarni amalga oshirilishi, tegishli byudjet mablag`lari Buyurtmachining g`azna hisob-raqamida shakllantirish (ko`chirib berilgunga) muddatiga uzaytiriladi.

2.12. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, Pudratchi tomonidan to`lanishi lozim bo`lgan soliq va boshqa majburiy to`lovlaridan mavjud qarzdorlik hisobiga vakolatli soli? yoki boshqa organlar tomonidan undirib olingan summalar, Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga to`lanishi lozim bo`lgan bajarilgan ishlar qiymatidan chegirib qolinadi.

2.13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo`yicha ishlar umumiy qiymatining 30 % miqdorida, avans o`tkazadi, bu 4500 000(turt millionbesh yuz ming)so`mni tashkil etadi.

2.14. SHartnoma bo`yicha avans to`lov shartnoma kuchga kirgan sanadan e`tiboran 10bank ish kuni davomida amalga oshiriladi. Buyurtmachiga topshirishga tayyor holda bajarilgan loyiha-smeta hujjatlari uchun Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo`yicha ishlar umumiy qiymatining 70 % miqdorida to`lovlarni barcha hujjatlar tegishli tarzda rasmiylashtirib, tegishli ilovalari bilan taqdim qilinganidan va to`g`riligi tekshirib qabul qilingan kundan boshlab 10 bank kuni ichida amalga oshiradi. SHartnomaning moliyalashtirish bilan bog`liq barcha shartlar ajratilgan limit doirasida (shartnomaning 2.9-bandi talablariga rioya qilgan holda) amalga oshiriladi.

2.15. Joriy va yakuniy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati va hajmi tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

2.16. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo`yicha o`z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o`zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to`lashdan ozod qilinmaydi.

2.17. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar qiymatini to`lash uchun shartnoma taraflari o`rtasida o`rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hamda imzolangan Forma №5 hamda Forma №3 asos bo`ladi. hujjatlar barcha ilovalari bilan to`liq komplekt holatda taqdim qilingandan va Buyurtmachi tomonidan tekshirilgandan so`ng, SHartnomaning moliyalashtirish shartlariga muvofiq (ajratilgan limit doirasida) moliyalashtiriladi.

2.18. Pudratchi tomonidan SHartnoma bo`yicha bajarilgan ishlarini SHartnoma shartlari, texnik topshiriq va normativ-texnik va huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tekshirish uchun, (zarurat bo`lganda) Buyurtmachi Pudratchi va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokida nazorat/o`lchov tadbirlarini amalga oshirishga haqli.

Nazorat o`lchov tadbirlarida Pudratchi ishtirok qilishdan voz kechishi yoki nazorat o`lchov dalolatnomasini imzo qo`yishdan bosh tortishi ishlarni qabul qilishni va to`lovlarni amalga oshirishni rad qilish uchun asos bo`ladi.

Pudratchi nazorat o`lchov dalolatnomasini imzo qo`yishdan bo`yin tovlagan taqdirda, Buyurtmachi dalolatnomani bir tomonlama imzolab, rasmiylashtirishga haqli. Bundan holatda Buyurtmachi ishlarni qabul qilishni va to`lov uchun taqdim qilingan hujjatlarda ko`rsatilgan summalarni to`lashni rad qiladi.

2.19. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar qiymatini to`lash uchun taqdim qilgan hujjatlardagi ma`lumotlar haqiqatda bajarilgan ishlar hajmidan va shartnoma shartlariga muvofiq to`lanishi lozim bo`lgan qiymatidan farq qilganda, Buyurtmachi zudlik bilan bu haqda Pudratchini ogohlantiradi va Pudratchi tomonidan tegishli tuzatishlar va o`zgartirishlar kiritilmaguncha ushbu hujjatlarni imzolamaydi.

2.20. Buyurtmachining to`lovga taqdim qilingan hujjatlaridagi kamchiliklar bo`yicha e`tiroz bildirish huquqi ular imzolangandan so`ng ham (shu jumladan vakolatli nazorat qiluvchi organlar tomonidan nazorat/tekshirish jarayonida kamchiliklar aniqlanganda, sifati va miqdori bo`yicha e`tirozlar bildirilganda) saqlanib qolinadi.

2.21. Pudratchi tomonidan texnik topshiriq, normativ-texnik va huquqiy hujjatlar, shuningdek mazkur SHartnoma shartlaridan chetga chiqib bajarilgan ishlar qiymati, tegishli kamchiliklar

Pudratchi tomonidan to'liq bartaraf qilinmaguncha Buyurtmachi tomonidan to'lanishi to'xtatib turiladi.

2.22. Bajarilgan ishlar natijasini qabul qilish jarayonida yoki vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan aniqlangan kamchiliklar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan tegishli komissiya bildirilgan e'tiroz va aniqlangan kamchiliklarni hamda ularni bartaraf qilish muddatlarini ko'rsatgan holda dalolatnoma tuziladi. Buyurtmachi tomonidan dalolatnomada qayd qilingan e'tirozlar Pudratchi uchun majburiy va talab qilingan muddatlarda Pudratchi ?isobidan bartaraf qilinishi kerak.

2.23. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarda Ob'ektni maqsadli foydalanish imkoniyatidan maxrum qiladigan darajada yo'l qo'yilgan va/yoki Pudratchi tomonidan bartaraf qilib bilmaydigan kamchiliklar aniqlanganda, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini to'lashni rad qilishga haqli.

2.24. Mazkur shartnoma shartlari, texnik topshiriqlarida nazarda tutilmagan va Pudratchi tomonidan amalga oshirilgan ishlar qiymati to'lab berilmaydi. Agar ushbu ishlarni bajarish natijasida Ob'ekt bo'yicha texnik topshiriq talablari, maqsadlar, echimlarining buzilishiga olib kelgan taqdirda, bu kamchiliklar Pudratchi tomonidan o'z xisobidan tuzatiladi.

2.25. Ishlar Pudratchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda, ularning qiymati mazkur SHartnoma shartlariga muvofiq, ajratilgan byudjet mablag'lari limitlari doirasida to'lanadi.

2.26. Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarning mazkur shartnoma shartlari, normativ-texnik va huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiqligini tekshirish uchun Buyurtmachi mustaqil ekspert tashkilotini jalb qilishi mumkin.

2.27. Buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlarni qabul qilish natijasi bo'yicha amalga oshirilgan har qanday to'lov Pudratchini bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod qilmaydi.

2.28. Pudratchi tomonidan majburiyat shartlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, shartnoma tomonlari o'rtasida dalolatnoma tuzishlari va hisoblangan va to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka, etkazilgan zarar summalari ko'rsatilishi mumkin. Bunday holatda hisoblangan neustoyka va zarar summalari Buyurtmachi tomonidan SHartnoma bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlardan ushlab qolgan holda amalga oshiriladi.

2.29. Yakuniy xisob-kitob loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ijobiy ekspertiza xulosasi olingandan so'ng amalga oshiriladi. Ijobiy xulosa olinmagan taqdirda bajarilgan ishlar uchun to'lov amalga oshirilmaydi.

2.30. Ishlar qiymatini bir tomonlama ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

3. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

3.1. SHartnoma milliy valyuta (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uchun imzolangan paytdan boshlab, keyinchalik ЭAV ga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada (so'mda) o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun hujjatlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

3.2. Pudratchi moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

3.3. Ishlarni davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 5 kalendar kunnitashkil etadi.

3.4. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar, ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

3.5. "Pudratchi"ga bog'liq bo'lmagan holda "Buyurtmachi" tomonidan moliyalashtirish kechiktirilganda yoki birlamchi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim qilinmagan hollarda, ishlarni davom ettirish muddati moliyalashtirishning kechiktirilgan yoxud birlamchi ma'lumotlar taqdim qilinishi kechiktirilgan vaqtga mutanosib tarzda uzaytiriladi.

3.6. "Pudratchi" mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni bajarishda uchinchi shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

4. TOMONLAR HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. "Buyurtmachi" shartnoma bo'yicha avans to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishi hamda topshirilgan-qabul qilib olingan ishlar uchun mazkur shartnomada kelishilgan tartibda hisob-kitob

qilishi; "Pudratchi"dan olingan loyiha-smeta hujjatlaridan faqat shartnomada nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanishi, loyiha-smeta hujjatlarini "Pudratchi"ning rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermasligi va undagi ma'lumotlarni oshkor qilmasligi; loyiha ishlarini bajarishda shartnomada nazarda tutilgan hajmda va shartlarda "Pudratchi"ga xizmat ko'rsatishi, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni "Pudratchi"ning so'roviga ko'ra taqdim qilishi; tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini tegishli davlat organlari va tashkilotlari bilan kelishib olishda "Pudratchi" bilan birga qatnashishi; tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan "Buyurtmachi"ga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishda qatnashishga "Pudratchi"ni jalb qilishi shart. Pudratchi shartnomani, texnik shartlari, normativ-texnik va huquqiy hujjatlar talablarini buzgarligi uchun Buyurtmachi Pudratchini o'rnatilgan tartibda qora ro'yxatga kiritishga, Ob'ekt qurilishi bilan bog'liq operativ shart yig'ilishlariga Pudratchi vakili ishtirok etishini talab qilishga va chaqirishga haqli.

4.2. "Pudratchi" ishlarni loyihalash haqidagi topshiriq va boshqa boshlang'ich ma'lumotlarga muvofiq hamda kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishi, "Buyurtmachi" bilan bajariladigan ishlarning (bosg'ichlarning) natijalarini kelishishi; tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini "Buyurtmachi" bilan kelishib olishi, shuningdek, "Buyurtmachi" bilan birga tegishli davlat organlari va tashkilotlari bilan kelishib olishi; Bunday kelishuvlar "Pudratchi" xisobidan tashkillashtiriladi va amalga oshiriladi. Tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini, Buyurtmachining talabiga ko'ra boshqa hujjatlarni shartnomada belgilangan muddatlarda "Buyurtmachi"ga topshirishi; Ishchi hujjatlarni tayyorlashda import maxsulotlari va texnikalarni ishlatilishini minimallashtirishi; boshlang'ich, birlamchi ma'lumotlarni mustaqqil olishi; Ishlarni bajarish vaqtida uchinchi shaxsdarning huquqlari, shu jumladan intellektual mulk huquqlarini buzmasligi; "Buyurtmachi"ning loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimachalar kiritish to'g'risidagi yozma ko'rsatmalarini, agar ushbu ko'rsatmalar mazkur shartnomaga zid bo'lmasa bajarishi; SHartnomaning ishlarni bajarish bilan bog'liq barcha shartlari, SHartnomaning ilovalari bilan to'liq tanishish va o'rganish, ishlarning amalga oshirish yakunlash muddatlari, qiymati va sifatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha masalalar bo'yicha to'liq ma'lumot olish va tanishib chiqish majburiyatini, shartnoma bo'yicha kelishilgan ishlarni yakunlashning barcha qiyinchiliklari, xarajatlari va xavfini o'z zimmasiga olishi; Loyiha-smeta hujjatlari sifati va tarkibi bo'yicha va/yoki keyinchalik qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha asoslantirilgan talabnoma yuborilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida kamchiliklarni loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va ularning natijasini Buyurtmachiga taqdim qilish uchun nazarda tutilgan tartibda (barcha kelishuvlar, ekspertiza v.x.ni bajargan holda) bartaraf qilishi, tegishli etishmayatgan hujjatlarni taqdim qilishi; "Buyurtmachi"ning rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

3. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

2.1. Ishlar bajarilishining alohida bosg'ichlarida va shartnomada ko'rsatilgan ishlar to'liq bajarilgandan, hamda hujjatlarga ijobiy ekspertiza xulosasi olingandan so'ng "Pudratchi" tomonidan rasmiylashtirib "Buyurtmachi"ga topshirilishi kerak bo'lgan loyiha-smeta hujjatlari topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida qog'oz shaklda hamda elektron shakllarda (Microsoft Word, Microsoft Excel, PDF yoki "Buyurtmachi" bilan kelishilgan boshqa shaklda) "Buyurtmachi"ga topshiriladi. Loyiha-smeta hujjatlari tarkibiga Buyurtmachining talabiga ko'rsa muhandislik, ekologik-qidiruv ishlari bo'yicha tayyorlangan materiallar (hisobotlar, dalolatnomalar, bayonnomalar, chizmalar, eksplikatsiyalar, xulosalar v.h.) ilova qilinishi lozim.

2.2. "Buyurtmachi" ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 5.1. bandida ko'rsatilgan hujjatlarini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni tekshirib qabul qiladi.

2.3. Loyiha-smeta hujjatlarini qabul qilish-topshirish dalolatnomasining imzolanishi unga nisbatan barcha mutlaq huquqlarning "Pudratchi"dan "Buyurtmachi"ga o'tganligini tasdiqlaydi.

2.4. "Buyurtmachi" ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan xolda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan xolda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

2.5. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

2.6. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

2.7. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

2.8. "Pudratchi" ishlab chiqiladigan loyiha-smeta hujjatlarining texnik topshiriqqa, texnik shartlarga, qurilish normalari va qoidalariga, davlat standartlariga, vakolatli tashkilotlarning takliflariga va mulohazalariga muvofiqligini hamda aniqlanadigan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf qilinishini kafolatlaydi. Texnik hujjatlarda va/yoki qidiruv ishlarida kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan taqdirda, Pudratchi Buyurtmachining talabiga muvofiq, loyiha-smeta/qidiruv ishlarini Buyurtmachi belgilagan muddatda o'z hisobidan qo'shimcha loyiha ishlab chiqish, o'zgartirish, kelishish, himoya qilish yo'li bilan kamchiliklarni bartaraf qilishi va Buyurtmachiga topshirishi, shuningdek Buyurtmachining bu bilan bog'liq xarajatlarini qoplashi shart. Aniqlangan kamchiliklarning bartaraf qilinishi, shartnomani buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi. Loyiha-smeta hujjatlarga kafolat muddati - 3 yil.

6. YENIGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch xolatlarini natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch xolatlarini amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.3. Buyurtmachi to'lovlarni amalga oshirish majburiyati qisman yoki to'liq bajarilmasligi byudjet (maqsadli jamg'armalar) mablag'larini taqsimlovchi organlar, mansabdor shaxslar, tashkilot va idoralarning Ob'ekt uchun moliyalashtirish limitlarini ajratish masalalari bo'yicha qabul qiladigan (yoki qabul qilmayotgan) qarorlari natijasida kelib chiqsa va bu holat mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, Buyurtmachi Pudratchi oldida bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan, shu jumladan neustoyka to'lashdan ozod etiladi.

6.4. Agar engib bo'lmaydigan kuch xolatlarini yoki ularning okibatlarini bir oydan ko'p vaktga cho'zilsa, u xolda "Pudratchi" va "Buyurtmachi" ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun kandy choralar ko'rilishini muxokama kiladilar.

6.5. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

7. TOMONLARNING MULKIY JAVOGBARLIGI

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni koplaydi; fuqarolik qonunchiligida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshkacha javobgarlikka tortiladi.

7.2. Mazkur shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya kilmaganligi, o'z vaktida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshka majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Pudratchi"ga kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan kismining 0.1 foizi mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi to'lovi kechiktirilgan summaning 20 foizidan oshmasligi lozim.

7.3. "Pudratchi" ishlarni o'z vaktida "Buyurtmachi"ga topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun

majburiyatlarninr bajarilmagan kismining 0.1 foizi mikdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi topshirilishi kechiktirilgan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

7.4. Pudratchining vakili, raxbari v.h.ning Buyurtmachining vakili (vakillari, xodimlari v.h.) bilan oldindan til biriktirib yoki aldov, qistov, qo'rqitish, bosim o'tkazish va boshqa turli noqonuniy yo'llari bilan, amalda bajarilmagan ishlar hajmini Forma№5 va ularning qiymatini Forma№3 da kiritib, ular uchun byudjet mablag'larini qabul qilgan taqdirda, bajarilmagan ishlarning qiymati bilan bir qatorda o'zganing pul mablag'laridan asossiz foydalanganlik uchun bank foizlarini Buyurtmachiga to'lab berishga majbur.

7.5. Majburiyatning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lanm tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod kilmaydi.

6. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

6. 6.1. SHartnomani ijro qilish jarayonida, uni o'zgartirish yoki bekor qilish bilan, shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni talabnoma yuborish yo'li bilan hal qilinadi. Talabnoma tartibida hal etilmagan nizoli masalalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Buyurtmachi" joylashgan joydagi vakolatli sud organi tomonidan ko'rib chikiladi va xal kilinadi.

6.2. Talabnomani ko'rib chiqish va javob qaytarish muddati-7 kun.

7. QO'SHIMCHA SHARTLAR

7.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va ogzaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'kotadi.

7.2. Ishlar bajarilishi davrida "Pudratchi" o'zi konfidentsial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni "Buyurtmachi"dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

7.3. Buyurtmachi mazkur shartnomani quyidagi hollar hollarda bir tomonlama bekor qilishga haqli: Pudratchi o'z majburiyatlarini Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan 30 kun davomida boshlamayotganligi/bajarmayotganligi; SHartnoma shartlarini bir necha bor buzganligi; Ishlarning sifati SHartnoma shartlari, texnik topshiriq, normativ-texnik va huquqiy hujjatlar talabiga javob bermaganda, Buyurtmachining talabi bilan kamchiliklarni bartaraf qilish haqidagi talabi 30 kundan orti? muddat davomida bajarilmaganligi; Pudratchiga nisbatan bankrotlik taomillari boshlanganligi; tegishli litsenziya va ruxsatnomalarning amal qilish muddati tugaganligi, bekor qilinganligi, haqiqiy emas deb topilganligi; qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslar yuzaga kelganligi.

7.4. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha o'zining huquqlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, biron-bir uchinchi tomonga sotishga yoki boshqacha tarzda o'tkazishga haqli emas.

7.5. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va ko'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan, tomonlar ularni imzolagan, muhr qo'yilgan hamda belgilangan tartibda g'aznachilik organidan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa xakikiy xisoblanadi.

7.6. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega.

7.7. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 dekabrgacha. SHartnomaning amal qilish muddatining tugashi shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

8. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

8.1. 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qaroriga asosan, shartnoma tegishli tartibda

g'aznachilik boshqarmasida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va tomonlar uchun majburiy bo'ladi.

8. **TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI.**

**«Буюртмачи»
Olot tuman Obodonlashtirish**

Манзили: Olot tuman obodonlashtirish boshqarma
Телефон : 34 21 080
Olot tuman Dilkor MFY Mirobod qishlog'i
Ш.х/р 401722860062047045204118007
Бюджетдан маблағ олувчи СТИР 201365434
ОКОНХ;90211
G'aznachilik bulinmasi nomi;Olot tuman
Газна х/в 23402000100001010
Банкнинг номи: Toshkent sh банк ХККА
МФО; 00014
Газначилик бўлинмаси СТИР 201122919

**«Пудратчи»
Buxoro kuprik trans servis**

Манзил: Бухоро kuprik trans servis
Тел: 99-706-05-50
х/р: 20208000904657916001
банк: Асака банк Бухоро шаҳри
МФО: 00120
СТИР: 303513538
ИФУТ: 71120



Директор:
М.У

U. Qulliyev



Давозитчи:
М.У

N. Boltayev

]]	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	UBAYDULLO QULLIYEV ABDULLAYEVICH
	Imzolangan sana	18.10.2022 15:43
	Hujjat kodi	SZ6736111152
	Hulosa kodi	YG7567481158

127-2-31-DB/2022 -sonli
mehnat shartnomasiga

ILOVA

Korrupsiyaga qarshiqoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Xodim ushbu mehnat shartnomasi bo'yicha o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, shujumlardan, g'ayri qonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida:

porataklifqilmaslik;
va'da bermaslik;
pulto'lmaslik; tovlamachilikqilmaslik;
bevositayoki bilvositaporaolishgarozilikbermaslik;
poraolmaslik;
biron-bir shaxs foydasiga yoki biron bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;
mol-mulkiyokimulkiyhuquqlarniolmaslik;
o'z vakolatlarinisuiiste'molqilmaslikmajburiyatinioladi.

2. Xodim atrofda shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan xulq-atvordan o'zini tiyishi shart.

3. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Olot tuman Obodonlashtirish bo'limi ichki hujjatlariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rishi va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'ziga ma'lum bo'lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o'rni bosadigan shaxslarni xabardor qilishi shart.

4. Xodimlar orasida shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, xizmat majburiyatlaridan chetga chiqqan holda boshqa xodimlarning professional ish faoliyatiga aralashish, ma'lumot so'rash hamda qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatish holatlari yuzaga kelganda (Olot tuman Irrigatsiyabo'limi)
ichki hujjatlariga muvofiq darhol quyidagi aloqakanallari orqali:

korrupsiya haqidaxabar berishgamo'ljallanganishonchtelefoni 71 2070464

Telegram-kanali ("@antikorbot");

davlat organi yoki takshlotining korrupsiyaga qarshi ichkinazorat tuzilmasining xizmat telefon raqamiga xabar qilish lozim;

shaxsan Olot tuman Obodonlashtirish bo'limi ijtimoiy tarmoqdagi manzillariga xabar qilinishi lozim.

5. Agar xodim Olot tuman Obodonlashtirish bo'limi boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlarni aniqlasa, u ushbu ma'lumotni aloqa kanallari orqali Olot tuman Obodonlashtirish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul shaxslarga taqdim etishi shart.

6. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Olot tuman Obodonlashtirish bo'limi ichki hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi talablarni buzgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

TOMONLAR:

Bajaruvchi:
Buxoro ko'priklar trans servis
N.Boltaev



Obodonlashtirish boshqarmasi



U. Qulliyev

A handwritten signature in blue ink, appearing to read 'U. Qulliyev'.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

YG7567481158

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **haq evaziga xizmat ko'rsatish**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Olot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 17.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Olot tumani yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



Z.Y.ZIYODULLOYEV

18.10.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 159785 на приобретение Олот тумани Дилкор МФЙ Миробод қишлоғи ички автомобиль йўлини жорий таъмирлаш бўйича смета лойиха хужжатларини тайёрлаш

Способ проведения электронный

Дата 13.10.2022

Время рассмотрения 13.10.2022 09:49

Закупочная комиссия Олот туман хокимлиги ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	QURBONOV MIRSHOD O'KTAMOVICH	бош мухандис	Олот туман Ободонлаштириш бошқармаси
Секретарь комиссии	BAQAYEVA NODIRA G'ULOMOVNA	хисобчи	ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	YAVONOV RO'ZIQUL YAVONOVICH	Бош хисобчи	Олот туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	QUDRATOV UMIDJON RAJABOYEVICH	техназор	Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	RAXMONOV AXMEDJON SUVONOVICH	курилиш булими бошлиғи	Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	AXMEDOV RO'ZIMUROD NORMURODOVICH	Бўлим бошлиғи	Олот туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 13.10.2022 года № лота 159785.
Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Услуга по разработке проектно-сметных работ мфй Дилкор
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	24 000 000.00
Стартовая сумма	24 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган моддий-техник воситалари мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Транспорт воситаси билан таъминланганлиги, махсус асбоб ускуналар ва компьютер жихозлари мавжудлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	15	22000000	15	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	15	15	10	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	15	1 - илова	15	Экспертная		

Критерий №2 Объекта ўхшаш объектлардаги иш тажрибаси.

Тип: Текстовое значение

Описание: 2020 - 2021 - 2022 йил октябр ойларигача бўлган ораликда бажарилган ишлар кўрсатилсин

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	15	22000000	15	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	15	15	13	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	15	8 - илова	15	Экспертная		

Критерий №3 Танлов ЎРҚ 684 конуни талаблари асосида бахоланади. ЎРҚ 684 конун 13-14 моддалрига асосан коррупсия ва манфаатлар тўқнашувига кўшилмаслик тўғрисида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Танлов ЎРҚ 684 конуни талаблари асосида бахоланади. ЎРҚ 684 конун 13-14 моддалрига асосан коррупсия ва манфаатлар тўқнашувига кўшилмаслик тўғрисида кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	10	22000000	10	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	10	10	10	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	10	7 - илова	10	Экспертная		

Критерий №4 Иштирокчи корхонанинг иш турига мос келувчи ишчи ва мухандис ходималари тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Камида 2 та олий маълумотли иш тажрибаси 5 йилдан кам бўлмаган мутахасис бўлиши шарт.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	15	22000000	15	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	15	15	12	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	15	6 - илова	12	Экспертная		

Критерий №5 Ишларини қисқа муддатда бажариш бўйича кафолат хати (муддат қисқариши ишнинг сифатига таъсир кўрсатмаслиги шарт)

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишларни бажариш муддати бўйича кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	10	22000000	5	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	10	10	10	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	10	5 - илова	8	Экспертная		

Критерий №6 Молиявий ҳолати бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Муддати ўтган қарздорлиги мавжуд эмаслиги, Ҳозирги ҳолатда ҳисоб рақамида таклиф қилинаётган сумманинг 20% миқдорида маблағ мавжудлиги, асосий воситаларининг қолдиқ қиймати 20 млн сўмдан ва ундан юқори бўлиши, Тўловга қодирлик ёки қоплаш коефициенти 1.25 ва ундан юқори бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	15	22000000	15	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	15	15	10	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	15	4 - илова	15	Экспертная		

Критерий №7 Қурилиш объектини кўздан кечирганлик тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Қурилиш объектини кўздан кечирганлик тугрисида маълумотнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	15	22000000	10	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	15	15	12	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	15	3 - илова	10	Экспертная		

Критерий №8 Инсофсиз ижрочилар ягона рестерида мавжуд эмаслигини тасдиқловчи маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Инсофсиз ижрочилар ягона рестерида мавжуд эмаслигини тасдиқловчи маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	5	22000000	5	Экспертная		
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	5	5	5	Экспертная		
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	5	2 - илова	5	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК	24 000 000.00	15 000 000.00 UZS	15 000 000.00	00.00	15 000 000.00	12.10.2022 14:12:01	100
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	24 000 000.00	18 000 000.00 UZS	18 000 000.00	00.00	18 000 000.00	11.10.2022 13:25:12	83.33333
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	24 000 000.00	21 000 000.00 UZS	21 000 000.00	00.00	21 000 000.00	12.10.2022 14:16:33	71.42857

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС	Прошел	100	100

ХК			
"BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ	Прошел	83.33333	83.33333
"BAGDAN SYOMKA SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Прошел	71.42857	71.42857

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 159785 от 13.10.2022 года на приобретение Олот тумани Дилкор МФЙ Миробод кишлоғи ички автомобиль йўлини жорий таъмирлаш бўйича смета лойиха ҳужжатларини тайёрлаш определила победителем:

БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХК
300612495

и резервный исполнитель: "BuxoroGeoRoad Proekt Group" МЧЖ (303513538)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	QURBONOV MIRSHOD O'KTAMOVICH	Согласен	
Член комиссии	YAVONOV RO'ZIQUL YAVONOVICH	Согласен	
Член комиссии	QUDRATOV UMIDJON RAJABOYEVICH	Согласен	
Член комиссии	RAXMONOV AXMEDJON SUVONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ
 КУРИЛИШ СОҲАСИДАГИ АЙРИМ ФАОЛИЯТ ТУРЛАРИНИ
 АМАЛГА ОШИРИШ УЧУН

ЛИЦЕНЗИЯ

№ 000102

Берилган: **“BUXORO KO'PRIK TRANS SERVIS”** Хусусий корхонаси

(шарикли-хусусий шакли кўрсатилган юридик шахснинг фирма номи)

Лицензия берилган сана (Лицензиялар реестрига киритилган сана):

.. 04 .. сентябрь 20 19 й..

(кун, ой (сўз билан), йил)

Лицензия амал қилиш муддати (Лицензиялар реестрига киритилган сана):

.. 04 .. сентябрь 20 24 й..

(кун, ой (сўз билан), йил)

Лицензия рақами (Лицензиялар реестридаги ёзув рақами):

№ ҚВ-000102

Солик тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 300 612 495

Жойлашган манзили (почта манзили): Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри,
 Шарқ-1 мавзеси, Кўксарой кўчаси, 11/2-уй, 52-хонадон

Амалга ошириладиган фаолият турлари (қисмлари): Кўприк ва тоннелларни
 лойиҳалаштириш фаолияти

_____ билан шутулланишга руҳсат этади.

Э.Б. Искандаров

(исми, отасининг исми, фамилияси)

(носки)

Лицензия амал қилиш муддати: _____ й. _____ гача узайтирилди.

Ваколатли шахс _____

(исми, отасининг исми, фамилияси)





№ 4284-295d-bc0f-d6ae-77c2-0084-5526
Хужжат яратилинган сана: 2019-11-01

Хужжат берилган: БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС
ХУСУСИЙ КОРХОНАСИ
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 300612495

**Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун
ЛИЦЕНЗИЯ**

БУХОРО КУПРИК ТРАНС СЕРВИС ХУСУСИЙ КОРХОНАСИ га объектларнинг мураккаблик тоифалари классификатори бўйича II тоифадаги объектлар учун қуйидаги:
Тўлиқ комплекда лойиҳалаш бўйича фаолият турлари. А гуруҳи - Умумий фойдаланиладиган автомобиль йулларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш учун лойиҳа-смета ҳужжатларини яратиш. фаолият тур(-лар)и билан шуғулланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 01-11-2019 йил

Лицензия рақами: АЛ-000321

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 300612495

Юридик шахснинг почта манзили: SHARQ 1D 11/2. KV52

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

ИНОЯТОВ МИРАББОС МИРКОМИЛОВИЧ

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон ҳужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун gerno.gov.uz веб-сайтига ўтинг ва электрон ҳужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон ҳужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон ҳужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланган.

0551

